

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Muxsinova Musallamxon

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI
(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) 5-7

TEXNIKA FANLARI

Baxriddinov Nodirbek

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN
QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSh VA YeVROPA TAJRIBASI 8-11

TARIX FANLARI

To'uchiyeva Dilnoza

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR)..... 12-19

Норов Шухрат

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ
МОЛОДЕЖИ 20-25

Bazarbayeva Nilufar

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA 26-29

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI 30-34

Кайыбеков Парахат

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ АВТОМОБИЛЬНЫМИ ТРАНСПОРТНЫМИ
УСЛУГАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ 35-41

Ibragimov Jakhongir

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM
O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH 42-45

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI 46-48

Ro'ziyev Maqsud

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI 49-52

FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbaev Ilham

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI 53-57

Pulatjonova Muxtasar

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER
CORPUS ANALYSIS 58-60

Abdulxayeva Nodirabegim

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION 61-63

Absalomova Feruza

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST 64-68

GEOGRAFIYA FANLARI

Nazirov Mirjalol

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA
HUDUDIIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI 69-71

YURIDIK FANLARI

Tog'onova Jemala

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI 72-76

Shomurodov Sanjar

SUN'IY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI 77-80

Qilichev Nosirbek

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT
SIFATIDA 81-84

Xolmo'minova Barchinoy

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 85-90

PEDAGOGIKA FANLARI

Tadzhibaeva Альбина

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК..... 91-96

Собирова Гулибарно

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ..... 97-101

TIBBIYOT FANLARI

Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI 102-104

PSIXOLOGIYA FANLARI

Kurbonov Munis

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH..... 105-107

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT SIFATIDA

Qilichev Nosirbek Jasur o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida mavjud bo'lmagan qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida sport tavakkalchiligining huquqiy tahlili chet davlatlar tajribasi asosida yoritib beriladi. Sport tavakkalchiligining o'ziga xos xususiyatlari, jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi qoidalarini, sport qoidalarini buzishi qanday holatlarda ehtiyotsizlik va qaysi holatlarda qasddan sodir etilgan qilmish sifatida baholanishi lozim ekanligi haqida ilmiy qarashlar ilgari surilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish yuzasidan taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, qilmishni jinoiyligini istisno qilish, sport tavakkalchiligi, sport qoidasini buzish, ayb, qasd, ehtiyotsizlik.

SPORTS RISK AS A CIRCUMSTANCE EXCLUDING CRIMINALITY OF AN ACT

Qilichev Nosirbek Jasur ugli

Master's Student of Tashkent State University of Law

Annotation. This thesis explores the legal analysis of sports risk as a circumstance excluding the criminality of an act, which is not currently codified in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Drawing upon the practices of foreign legal systems, the paper highlights the distinctive features of sports risk, the legal grounds for exemption from criminal liability, and the conditions under which violations of sports regulations should be evaluated either as negligence or as intentional acts. Scientific perspectives are put forward regarding these issues, and recommendations are developed for the improvement of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

Key words: crime, exclusion of criminal liability, sports risk, violation of sports rules, guilt, intent, negligence.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-18>

Kirish

Butun jahonda sport musobaqalari juda ommalashgan tadbirlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon tomoshabinlarga zavq-shavq ulashishi bilan birga unda o'zaro kuch sinashadigan sportchilarga muayyan darajada tan jarohatlari yetkazishi, hatto ularning o'limiga olib kelishi mumkin. Bu masalani jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilish, mazkur holatlarga taalluqli maxsus va aniq normalar ishlab chiqish qonunchilikni qo'llashdagi noaniqliklar va ziddiyatlarni bartaraf etadi. Quyida "Sport tavakkalchiligi" deb nomlanadigan holatni qilmishni jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida tahlil qilamiz.

Materiallar va metodlar. Mazkur tezisda analiz, sintez, tarixiy-huquqiy metod, induksiya, deduksiya metodlaridan foydalanilgan hamda milliy va xorijiy olimlarning fikr va mulohazalari tahlili amalga oshirilgan.

Muhokama va natijalar. Olimlar tomonidan tavakkalchilikning turli shakllari ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ularga tibbiy tavakkalchilik, tadbirkorlik faoliyatidagi tavakkalchilik, kundalik hayotda uchraydigan tavakkalchilik va boshqa shu kabi turlar kiradi. N.Sh. Kozaev ushbu xavf turlarini quyidagicha tasniflashni taklif qiladi:

a) **kasbiy (professional) tavakkalchilik** – bu turdagi tavakkalchilik subyekti faqat turli sohalarda kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslardan iborat bo'ladi;

b) **texnik-ekspluatatsion tavakkalchilik** – bunda tavakkalchilik subyektlari qatoriga nafaqat tegishli mutaxassislar, balki muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur maxsus bilimlarga ega havaskorlar ham kiradi;

v) **sport tavakkalchiligi** – bu turda xavf subyektlari sifatida professional sportchilar bilan bir qatorda havaskor sportchilar ham ishtirok etadi.[2; C. 15]

Bular orasida sport tavakkalchiligi ayniqsa o'zaro kuch sinashadigan sport turlarida (boks, karate, tayekvando va boshqalar) uchraydi. Yu.A. Vlasov va O.A. Mixal ushbu masalaga batafsil to'xtalib o'tib, ayrim sport turlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, muayyan holatlarni huquqiy baholash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ayniqsa kuch ishlatiladigan sport turlarida (masalan, kuchli to'qnashuv yoki qarama-qarshilikka asoslangan sport musobaqalarida) ishtirokchilar olgan tan jarohatlari jismoniy shaxsga tajovuz sifatida baholab bo'lmaydi. Holbuki, bunday harakatlar sport muhitidan tashqarida, boshqa vaziyatda ro'y berganida, shaxsga qarshi jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin bo'lardi. [3; C.130.]

Jahon sport amaliyotida sport musobaqalarida zarar yetkazish holatlari ko'plab uchrab turadi. Masalan boks sport turi doirasidagi bir holatda, sportchi C. raqibining orqa tomoniga, ya'ni qoidalarda taqiqlangan sohalariga ataylab zarba beradi. Real hayotiy misolni olaylik. 1983-yil 16-iyunda New Yorkdagi Madison Square Garden'da bo'lib o'tgan Luis Resto va Billy Collins Jr. jangida Resto'ning treneri Panama Lewis ringda foydalanilgan qo'lqoplardan bir oz yumshoq qoplarni olib tashlaydi — bu harakat Resto zarbalarining kuchayishiga olib keladi. Natijada Collins og'ir jismoniy zarar ko'radi: tasodifan ko'zi ko'r bo'lib qoladi va uning bokschilik faoliyati yakunlanadi [7] Bu qasddan qilingan harakat natijasida raqibi og'ir darajada jarohatlanadi. Yuqoridagi vaziyatlarda sport qoidalari qasddan buzilgan.

Quyida keltiradigan holatimizda esa barcha sport qoidalariga rioya qilingan holatda boks o'tkazilgan, ammo sportchining o'lib kelib chiqqan. 2023-yil 25-mart kuni Angliyaning Nottingham shahrida o'tkazilgan xayriya boks turnirida, 23 yoshli bokschi Jubal Reji Kurian qarshi raqib tomonidan yuzga qilingan zarba natijasida muvozanatni yo'qotib, bexosdan yerga yiqiladi. To'rt kun o'tgach, u miyaga qon quyilishidan vafot etadi [8]

Bugungi kunda sport jamiyat hayotining raqobat darajasi yuqori bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, bizningcha, alohida kontaktli sport turlarida qonunga xilof harakatlarga nisbatan zarur choralarni qo'llash imkonini beruvchi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish ehtiyoji ortib bormoqda. Hatto boks yoki aralash jang san'atlari (UFC)da ham zo'ravonlik darajasi muayyan me'yorlardan oshmasligi lozim. Aks holda, mashhur shifokor Entoni Jokl ta'kidlaganidek, "nokaunt — bu odamni o'ldirishning qonuniy yo'li" sifatida talqin qilinaveradi [9].

Yuqoridagi holatlarda javobgarlik masalasi qanday bo'lishi kerak degan savolga amaldagi Jinoyat kodeksimizda aniq norma mavjud emas. Armaniston, San-Marino davlatlari Jinoyat kodeksilarida bu masala mufassal tartibga solingan. Armaniston Respublikasining 2021-yil 5-mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksining 38-moddasida boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligida uchramaydigan "Sport tavakkalchigi" deb nomlangan qilmishning jinoyatlikligini istisno qiluvchi maxsus holat nazarda tutilgan. Unga ko'ra "Agar shaxs muayyan sport turi bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqa yoki mashg'ulot davomida o'rnatilgan qoidalarni buzmagani bo'lsa, professional sport musobaqasi yoki mashg'uloti jarayonida

jinoyat qonunchiligi bilan himoya qilinadigan manfaatlarga zarar yetkazgan taqdirda, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi” [1]

Agar shaxs sport faoliyatini tartibga soluvchi belgilangan qoidalarga ataylab rioya qilmasa va buning oqibatida ehtiyotsizlik bilan boshqa bir shaxsning hayotiga zomin bo'lsa yoki sog'lig'iga og'ir darajadagi zarar yetkazilsa, u bunday holatda jinoyat javobgarligiga tortilishi lozim bo'ladi.. Sport turi uchun belgilangan qoidalarining qasddan buzilishi natijasida jinoyat qonunchiligi bilan himoyalananadigan manfaatlarga qasddan zarar yetkazgan shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan holatlardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, sport tavakkalchiligi masalasini qonun yo'li bilan tartibga solish, bu sohaga oid maxsus normalarni Jinoyat kodeksiga kiritish qonuniylikni mustahkamlashga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilinishining kafolatlarni oshirishga xizmat qiladi. Yuqorida asoslantirilgan holatlarga tayangan holda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini quyidagi 41²-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

“41²-modda. Sport tavakkalchiligi

Agar shaxs muayyan sport turi bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqa yoki mashg'ulot davomida o'rnatilgan qoidalarni buzmagani bo'lsa, professional sport musobaqasi yoki mashg'uloti jarayonida jinoyat qonunchiligi bilan himoya qilinadigan manfaatlarga zarar yetkazgan taqdirda, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Agar shaxs sport faoliyati uchun belgilangan qoidalarni qasddan buzishi oqibatida ehtiyotsizlik bilan boshqa shaxsning o'limiga yoki sog'lig'iga og'ir shikast yetishiga sabab bo'lsa, u holda u jinoyat javobgarligiga tortiladi.

Sport turi uchun belgilangan qoidalarining qasddan buzilishi natijasida jinoyat qonunchiligi bilan himoyalananadigan manfaatlarga qasddan zarar yetkazgan shaxs umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi”.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Уголовный кодекс Армении с изм. от 23.12.2022 // <https://hrlib.kz/document/176585>
2. Козаев, Н. Ш. Обоснованный риск как обстоятельство, исключающее преступность деяния : дис. канд. юрид. наук / Н Ш. Козаев. — М., 2000. — 176 с.
3. Власов Ю. А. Уголовно-правовое регулирование причинения вреда здоровью или смерти при спортивных занятиях / Ю. А. Власов, О. А. Михаль // Современное право. — 2014. — № 9. — С. 128–132.
4. Герасимова.Е.В. Обстоятельства, исключающие преступность деяния: необходимая оборона, причинение вреда при задержании лица, совершившего преступление, крайняя необходимость [Электронный ресурс]: учебно-практическое пособие. – Саратов: Вузовское образование, 2018. – 150 с.
5. В. Д. Иванов, Е. С. Петренко. Проблемные аспекты обоснованного риска в спорте // Физическая культура. Спорт. Туризм. Двигательная рекреация . 2018. Т. 3, NNº 3 С. 119-122.
6. В.А.Шестаков, Е.В.Павлюкова. Причинение вреда в спорте: уголовно-правовая характеристика в России и странах англосаксонской правовой семьи // Образование и право № 10 2020, С. 290-294.
7. https://www.reddit.com/r/FightLibrary/comments/11o694a/in_1983_luis_resto_illegally_altered_his_gloves/

8. <https://www.theguardian.com/sport/article/2024/jun/05/the-death-of-ardi-ndembo-was-a-fatal-boxing-fight-preventable>
9. Гонг. Нокаут. Морг [Электронный ресурс] // Сайт «Российской газеты». – Режим доступа: <https://rg.ru/2019/07/31/boksery-do-sih-por-riskuiutzhizniu-i-zdorovem-na-ringe.html> (дата обращения: 10.06.2025).

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 22-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 22-iyul

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.